


“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligi huzuridagi Jamoatchilik
Kengashi raisi


X.R.Mamasaidov

**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik
kengashi majlisining
2 -sonli bayoni**

2025-yil 7-aprel

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: X.R. Mamasaidov – vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi
Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha).

KUN TARTIBI:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 2025-yil 1-chorakda amalga oshirilgan ishlar tahlili, tizimdagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlash borasida Jamoatchilik kengashining istiqboldagi vazifalari

(X.Mamasaidov, M.Boboyorov, I.Bakirova, N.Mamaraimova, X.Mamasaidov)

Yig‘ilish avvalida, Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, vazirlik tomonidan 2025-yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar xususida to‘xtalib o‘tildi.

Shuningdek, vazirlikning 2025-yil 1-chorak yakuni bo‘yicha axboroti hamda Jamoatchilik Kengashining istiqboldagi vazifalari, tinglandi.

Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish natijasi bo‘yicha yig‘ilish **qaror qiladi:**

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kengash raisi X.Mamasaidovning vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha istiqboldagi vazifalar, amalga oshiriladigan ishlar xususidagi takliflari o‘rnatilgan tartibda kengash a’zolari bilan kelishilgan holda vazirlikka qayta taqdim etilsin.

3. Mazkur yig‘ilish qarorining ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Yig‘ilish kotibi



N.Mamaraimova